

Date: 21st May-2025

TA'LIM VA TARBIYA – TARAQQIYOTGA OLIB BORUVCHI ASOSIY OMIL

Vallamatova Sadoqat Samatjon qizi

Sharipova Firuza Muxammad qizi

Rasulova Mohira Abdujalilovna

TMII, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи ingliz tili o'qituvchilari

Tel.(99) 816 17 74

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lism va tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarni sog'lom dunyoqarash bilan tarbiyalash va ularni ta'lism jarayoni orqali jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonda qadriyatlarni singdirishning samarali usullari, shuningdek oliy ta'lism muassalarida xorijiy til, xususan ingliz tili fani o'qitishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish yo'llari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lism, tarbiya, milliy qadriyatlarni, jamiyat taraqqiyoti, oliy ta'lism, pragmatik maqsad, innovatsion metodlar.

Annotation: This article explores the role of education and upbringing in the development of society, the preservation of national values, and the upbringing of youth with a healthy worldview. It discusses how to shape young people into beneficial members of society through the educational process. The article also examines effective methods of instilling values from preschool to higher education, as well as ways to foster national and universal values in teaching foreign languages, particularly English, at higher education institutions.

Keywords: education, upbringing, national values, societal development, higher education, pragmatic goal, innovative methods.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль образования и воспитания в развитии общества, сохранение национальных ценностей, воспитание молодёжи с здоровым мировоззрением, а также формирование их как полезных членов общества через образовательный процесс. Обсуждаются эффективные методы внедрения ценностей на всех этапах образования — от дошкольного до высшего, а также пути формирования национальных и общечеловеческих ценностей при обучении иностранным языкам, в частности английскому, в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: образование, воспитание, национальные ценности, развитие общества, высшее образование, прагматическая цель, инновационные методы.

Har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlari bor va ularni yosh avlodga yetkazish ta'limning muhim vazifalaridan biridir [4]. O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, asriy qadriyatlari va milliy an'analari bilan ajralib turadi. Ushbu qadriyatlarni asrab-avaylash nafaqat madaniy merosni himoya qilish, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun ham muhim omildir. Ma'naviy qadriyatlarni mustahkam bo'lgan jamiyatda jinoyatchilik va ijtimoiy muammolar kam bo'ladi. Axloqiy tamoyillarga asoslangan

Date: 21st May-2025



jamiyatda hamjihatlik va birdamlik mustahkamlanadi.Ta'kidlash joizki, taraqqiyotga olib boruvchi ustuvor qadriyatlarni aholi ongiga singdirishda ta'lim va tarbiyaning roli beqiyosdir.

Globallashuv jarayoni tufayli ko'plab xalqlar o'z an'analarini yo'qotish xavfiga duch kelmoqda. Shu sababdan ham bu masala bugungi kunda dolzarb masalalar qatoridan joy olgan. Chunki jamiyat taraqqiyoti faqat iqtisodiy o'sish va texnologik rivojlanish bilan cheklanib qolmaydi. Mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun aholi ongida taraqqiyotga xizmat qiluvchi ustuvor qadriyatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlarni ichida bilimga intilish, mehnatsevarlik, adolat, halollik, vatanparvarlik va innovatsion fikrlash asosiy o'rinni tutadi.Qadriyatlarni saqlash yoshlarga sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. An'analar va urf-odatlar orqali yoshlar o'z millatining tarixi va merosini qadrlashni o'rganadilar.

Qadriyatlarni asrab-avaylab, ularni kelgusi avlodlarga singdirishning eng samarali yo'llaridan biri bu ta'lim va tarbiya jarayonini keng qamrovli, mazmunli, qadriyat-u an'analariga boyitgan holda olib borish hisoblanadi.Bunda, qadriyatlarni shakllantirish maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab, oliy ta'lim tizimigacha davom etishi lozim. O'quv dasturlariga milliy qadriyatlarni va innovatsion tafakkurni rivojlanishiga oid mavzularni hamohang tarzda kiritib dars jarayonlarini shunga monand tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir davlatning kelajagi uning ta'lim tizimi va yosh avlodining bilim darajasi bilan chambarchas bog'liq [1]. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilim berish, balki yoshlarning ma'naviy va axloqiy jihatdan shakllanishiga ham alohida e'tibor qaratish lozim [2]..

Ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni targ'ib qilishning bir ko'rinishi maktab va universitetlarda milliy qadriyatlarni bo'yicha darslar o'tkazish, tarixiy shaxslar va milliy qahramonlar haqida ma'lumot berish bo'lib, bu esa o'z navbatida yosh avlodning ma'naviy yetukligiga xizmat qiladi.

Hech kimga sir emaski, ta'lim – insonni ilmiy va kasbiy jihatdan shakllantirsa, tarbiya – ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiya bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar bo'lib, ular orqali jamiyat taraqqiyoti ta'minlanadi [3].Ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlanish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda quyidagi yo'naliishlarga alohida e'tibor berish lozim:

- maktabgacha ta'limdan boshlab, qadriyatlarni shakllantirishga e'tibor qaratilganda, maktabgacha ta'lim muassasalarida nafaqat dastur asosida bilim berish, balki insoniy qadriyatlarni singdirish ham muhim. Masalan, bolalarga halollik, mehnatsevarlik va hurmat kabi fazilatlarni kichik yoshdan boshlab o'rgatish lozim;

- umumiyligi o'rta ta'limda milliy qadriyatlarni o'rgatishda esa maktab dasturlarida milliy qadriyatlarni ilgari suruvchi darsliklar, badiiy asarlar va tarixiy voqealarni keng yoritish muhim;

- oliy ta'lim va kasbiy rivojlanishga to'xtalganda esa aytish joizki, talabalarni nafaqat mutaxassis sifatida, balki mas'uliyatli, yuksak axloqiy qadriyatga ega bo'lgan

Date: 21st May-2025

shaxs sifatida tarbiyalash muhimdir [7]. Shuningdek, innovatsiyalar va tadbirkorlik ruhini shakllantirish orqali mustaqil fikrlaydigan va jamiyatga foyda keltiradigan yosh avlod yetishtirish mumkin. Sharq mamlakatlari ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya doimo birgalikda olib borilgan bo'lib bugungi kunda ham bu yondashuvdan oqilona foydalanilgan holda ta'lim tizimi tashkil etilmoqda va bu o'z samarasini ta'lim jarayoni ishtirokchilarining vatanga, oilasiga muhabbatni, qolaversa o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashuvida namoyon bo'ladi. Zero, tarbiya insonning hayotiy qarashlarini shakllantirib, uning axloqiy qiyofasini belgilaydi. Bunga ta'lim orqali erishilganda, bu ko'nikma va malakaga aylantirilishi mumkin. Oliy ta'limda xorijiy tillar, xususan ingliz tili darslarini tashkil etishda fan maqsadlari orasida ta'limiy, amaliy, rivojlantiruvchi va shu bilan birga tarbiyaviy maqsad ham o'rinn egallagan. Har bir yangi mavzuni talabalarga yetkazishda tarbiyaviy (cultural) maqsadi inobatga olinib dars jarayoni tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun o'tilayotgan mavzu "Atrof-muhit muommolar" ("Environmental problems") bo'lsa, asosiy yangi bilim berilgach jarayonda tabiat a'zosi sifatida tabiatga qanday yordam berolishini so'rash, turli loyihami ishlar berilishi mumkin. Albatta, bu jarayonda duch kelinishi mumkin bo'lgan muommolar ham yo'q emas.

Milliy qadriyatlar va chet el madaniyati o'rtasidagi muvozanat muammosi:

ingliz tili darslari davomida ko'pincha ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning madaniyati, qadriyatlari va turmush tarzi o'rganiladi. Bu esa ba'zi hollarda milliy qadriyatlarning ortda qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Talabalarda o'z qadriyatlari va chet el madaniyati o'rtasida muvozanatni saqlash qiyinlashadi.

Qadriyatlarni o'rgatishning aniq metodikasining yo'qligi:

Ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida axloqiy va milliy qadriyatlarni o'rgatishga doir maxsus metodika ishlab chiqilmagan. Natijada, bu jarayon asosan o'qituvchining individual yondashuviga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Chet tili o'qitish jarayonida pragmatik maqsadlarning ustunligi

Ingliz tili ko'pincha kasbiy va amaliy maqsadlarda o'qitiladi. Talabalar asosan akademik yozuv, biznes ingliz tili yoki texnik ingliz tili kabi yo'nalishlarga ko'proq e'tibor qaratishadi. Shu sababli, qadriyatlarni singdirish ikkinchi darajali bo'lib qolishi mumkin.

Madaniy va axloqiy mavzulariga yetarlicha e'tibor berilmasligi:

Ingliz tili darsliklarida ko'pincha texnik bilimlarga urg'u beriladi, biroq talabalarни axloqiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladigan materiallar kam uchraydi. Natijada, talabalar chet tilini o'rgangan holda, unga bog'liq bo'lgan axloqiy va madaniy tushunchalarni yetarlicha anglab yetmaydilar.

Qanday yechimlar taklif qilishi mumkin:

O'quv dasturlariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiya qilish

Ingliz tili kurslarida milliy qadriyatlarni singdirish uchun maxsus mavzular, matnlar va mashg'ulotlarni kiritish lozim [6]. Masalan, milliy qahramonlar, an'analar va zamonaviy O'zbekistonning rivojlanishi haqidagi materiallarni ingliz tilida o'rgatish mumkin;

- ✓ Madaniy solishtirish yondashuvini qo'llash

Date: 21st May-2025

Talabalar ingliz tilini o‘rganayotganda, chet el madaniyatlarini o‘z milliy madaniyatlari bilan taqqoslashga o‘rgatilishi kerak. Masalan, "O‘zbek an’analari va Britaniya madaniyati o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar" kabi muhokamalar orqali talabalar global fikrlash va milliy o‘zlikni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

- ✓ O‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar yaratish

Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilari uchun qadriyatlarni singdirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi lozim. Bu qo‘llanmalarda interaktiv dars usullari, muhokamalar, rol o‘yinlari va axloqiy masalalarni tahlil qilish kabi usullar o‘rin olishi kerak. Shuningdek, darslarda "adolat", "halollik", "oila qadriyatlari", "inson huquqlari" kabi mavzularga oid matnlar va muhokama mavzularini qo‘llash mumkin. Masalan, talabalar ingliz tilida "Biznes etikasini yuritish tamoyillari" yoki "Zamonaviy jamiyatda oila qadriyatlari" kabi mavzularda bahslashishlari mumkin.

- ✓ Multimedia va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish

Talabalarga milliy qadriyatlarni singdirish uchun videodarslar, podkastlar, interaktiv testlar va virtual o‘quv muhitlarini yaratish mumkin. Masalan, ingliz tilida tayyorlangan O‘zbekiston madaniyati va qadriyatlari haqidagi videolarni ingliz tiliga tarjima qilingan holda darslarda ko‘rsatish mumkin, ya’ni o‘qituvchilardan darslarda mavzularga mos video roliklar, qisqa video darslar tayyorlab qo‘yish talabi qo‘yiladi.

Ta’lim va tarbiya taraqqiyotga olib boruvchi eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ta’lim orqali inson bilimli va zamonaviy kasb egasi bo‘lsa, tarbiya orqali u axloqiy jihatdan yetuk va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanadi. Ta’limning barcha bosqichlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga alohida e’tibor berish jamiyatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Oliy ta’limda, ayniqsa ingliz tili o‘qitish jarayonida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo bu jarayonda muvozanatni saqlash, maxsus metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish talab etiladi [5]. Qadriyatlar va til o‘rganishni uyg‘unlashtirish orqali nafaqat chet tilini biladigan, balki milliy madaniyat va axloqiy tamoyillarni qadrlaydigan yetuk mutaxassislar yetishtirish mumkin [4].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning qadriyatlarni saqlash – bu nafaqat madaniy merosni asrab-avaylash, balki kelajak avlodni sog‘lom ma’naviyat bilan tarbiyalash yo‘lida muhim vazifadir. Oliy ta’lim muassasalarida bu jarayon nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy tadbirlar va zamonaviy yondashuvlar orqali ham qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A. Pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Azizzoxjayev A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
3. Hasanboyeva O. Zamonaviy pedagogika. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2018.
4. Qodirov M. Pedagogik metodlar va innovatsiyalar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.
5. Rashidov U. Ta’lim tizimini isloh qilish asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Safarov B. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

**METHODS OF APPLYING INNOVATIVE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE
EDUCATIONAL SYSTEM.
International online conference.**

Date: 21st May-2025

7. Xolmirzayev N. Oliy ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.

